

## BAXTLI BOLALALIK MENING HAYOTIM BOLAJONLAR BILAN TIRIK

**Bekeyeva Shoiri**

*Jizzax viloyati Paxtakor tumani M.M.T.B tassarufidagi 9-sonli  
DMTT da tarbiyachi lavozimida ishlayman xozirda Xalqaro Nordik  
Universitetida 3- kurs talabasiman*

***Mana shu maqolamda men bolajonlar hayoti ulardagi ichki kechinmalari haqida va ularning tasurrotlai bilan o'rtoqlashamiz. Bolalalik o'yin, erkalik, ona va bola, sho'xlik.***

Men 1990-yil Jizzax viloyati Paxtakor tumanida oddiy oilada dunyoga kelganman. Mening bolalaigim juda ham qiziqarli o'tgan deb hisoblamayman chunki men yoshligimdan juda ham tirishqoq qiz bo'lganim uchun maktabga, yoshimga nisbatan bir yosh oldinroq maktabga borganman . men maktabni juda ham yaxshi ko'rar edim shu jumladan bog'chani ham, mening yoshligimda orzularim juda ham ko'p edi. Men katta bo'lsam shifokor o'qituvchi bo'lishni xoxlar edim, oilaviy sharoitimiz unchalik yaxshi bo'lmaganligi sababli men ko'p narsalardan kechishga majbur bo'lganman. Men maktabni 9-sinfini bitirib kollejga o'qituvchilik kasbini egallash uchun bordim imtihonlar bo'ldi imtihindan yaxshi baholar olib o'tdim va kollejga o'qishga qabul qilindim. O'qishni tamomlab bog'chaga ishga qabul qilindim faoliyatimni bog'chadan boshladim avvaliga juda ham qiynaldim asta asta o'rganib oldim, bolajonlar bilan ishlash juda ham maroqli edi. Men bolajonlar bilan ishlar ekanman ular juda oq ko'ngil beg'ubor, ular aldashni bilmaydi ular yolg'on gapirishni bilmaydi, ularga faqatgina o'yin bo'lsa mazza qilib o'ynaydi. Faoliyatlar boshlanganda bolalar mashg'ulotlar orqali ular o'zida bor mahoratini namoish qila boshlaydi ularning ochilmagan qirralari ochiladi masalan rasm chizish qobilyati, rasm chizish qobilyati bor bolalar shunaqangi chiroyli rasm chizadiki xatto men o'zim ham hayratda qolar edim. Bolajonlar ertak namoish etishda ham o'z mahoratlarini ko'rsata oladi ular aytilayotgan ertak qahramoni ro'lga bimalol kirishib rollarini bajara oladi. Masalan: zumrad va qimmat ertagini oladigan bo'lsak bolajonlar ayniqsa qiz bolalar bu ertakdagi zumrad ro'lini bajarishga talashishadi lekin bu ertakdagi zumradning ham qimmatning ham ro'llari juda ham qiyin obraz hisoblanadi lekin men bu bolajonlar bajargan rollariga juda ham qoyil qolaman bundan tashqari bolajonlar bilan oila, quruvchi, kasb egalari o'yinlarini juda ham maromiga yetkazib bajaradilar. Bolajonlarning ochilmagan qirralarini bog'cha sohasida ishlab ajoyib bolalaik borligini bilib oldim. Mana shu ish faoliyatimdan mana 7-8 yilbo'ldi ishlab kelmoqdaman bu faoliyat davomida bolajonlarning xar xil xarakterli bolalar borligini va ular ana shu xarakteri bilan o'z xaqiqatlarini ifodalar edi. Sho'x shadod qizchalar ham bor erka tantiq bolajonlar ham bor lekin men ular bilan muloqotga kirishsam juda ham maroqli suhbat bo'ladida biz nima bilan shug'ullanayotganimiz ham esimizdan chiqib ketadi.

Meni guruhimda o'ttiz nafar bolajonlar bor bu bolajonlarning xarakteri o'ttiz xil men bu bolalarni o'ttiz xil xarakteri bilan ishliman men ularning ana shu xarakteriga

chidashimga to'g'ri keladi chunki bolajonlar men bilan kun davomida birga bo'ladilar shuning uchun bu bolalarni xar bir qiliqlariga chidaymiz va mazza qilamiz chunki bu bolalar meni o'z onasidek qabul qilganday tuyuladi. Bir kuni bir qizalog'im men kutmagan gaplarni gapirganda juda ham xayron qoldim mehribonim meni dedi juda ham xursand bo'lib ketdim. Mashg'ulotim davomida bolalar bilan birgalikda xotira mashqini bajardik bunda men ranglar orqali mashg'ulot o'tkazdim bunda bolajonlar juda ham xursand bo'ldi chunki bolalar ranglarni sevuvchi kichkintoylar hisoblanadi.

Xudoyberdi To'xtaboyevning bolajonlarga atalgan asarlari juda ham ko'p bulardan bittasi "Sariq devni minib" degan asarida bolajonlar haqida yozilgan ayniqsa bua sarda hayoliy voqealar ko'proq yozilgan, chunki bolajonlar hayoliy voqealar bilan yuradilar. Xudoyberdi To'xtaboyevning bu asarida hoshimjin degan bolaning hayoti haqida uning bolalarcha hayotidan olingan asar hisoblanadi. Men bog'chadagi guruhimdagi bolalarga bu asradan parcha o'qib bersam, ular o'z hayotlariga sho'ng'ib ketdilar, chunki ular ham sexrgarlik hayoloti bilan yuradilar. Bolalar uyqu vaqtida ham ularning ustozlari yonida birga ertaklar aytib berib yonida o'tirishlarini juda ham hohlashadi. Bolalarning osmon osmon orzulari bo'ladi ular xar davrda o'z istaklari paydo bo'la boshlaydi. Yosh bolalarda juda ham quvnoq insonlar ularda g'am tashvishlari yo'q insonchalar hisoblanadi.

Bolalar yoshligida xar xil o'yin kulgular o'ynaydilar masalan: quvlashmachoq, yashinmachoq, chillak va xakoza shunday ekan bolalikning sho'xligi o'yin kulgulari va beg'uborlik davri juda ham maroqli o'tadi. Bolalalik katta lr hayotiga nisbatan juda ham chiroyli davr hisoblanadi, chunki bolalarda ko'rolmaslik hasislik, bir biri bilan boshlarni yig'bat qilish tuyg'usi yo'q shuning uchun baribir ham bolalikni baxtlilikka yo'yamiz baxtli bolalik deganday xamma bolalar baxtli, ayniqsa o'bek farzandlari juda ham baxtli ularda ozodlik bor erkinlik, to'kinlik sochinlik ular uchun begona emas boshqa yurt bolalaridek bizning farzandlarimiz ham juda juda baxtli hisoblanadi.

Men faoliyat ko'rsatayotgan bog'chada juda ham tartib intizom kuchli bo'lgani uchun farzandlarimizning xamma narsaga qiziqishlari juda ham baland mening xonam yorug' juda ham katta xonamda bolalar sevib o'ynaydigan o'uinchoqlarim juda ko'p, bolalar bilan rollar bajarib o'yinlar o'ynaymiz o'zimiz uchun kerakli narsalar yasaymiz rangli qog'ozlardan uychalar, gular yasaymiz bolajonlar nima istashayotganini juda xam aniq aytib bera oladi vas hu vaziyatda ham ko'pgina o'yinlar o'ynaydilar. Men bu maqolamda shuni aytmoqchimanki bolajonlar hayoti biz kattalar hayotidan juda ham qiziq va maroqliroq ekanligini bildirmoqchi edim sizlarga mening faoliyatim boshqalarning ishlaridan ham juda ham qiziqarli o'tadi men shundan xursandman.

